

**KITOB DAVLAT GEOLOGIK QO'RIQXONASI HUDDUDIDAGI O'SIMLIKLER
TAHLILI****Sharifmurodov K.****Xurramov O.**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14043379>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kitob Davlat geologik qo'riqxonasi hududida uchraydigan o'simliklar tahlili keltirilgan. Qo'riqxona hududi geografik jihatdan Zarafshon tog 'ining janubiy-g'arbiy yonbag'rida, ma'muriy jihatdan esa Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida joylashgan.

Umumiy maydoni 3938 ga. Relefi tog'li, yuqori qismi qoyalardan, pastki tomoni esa, tepaliklardan iborat. Dengiz sathidan balandligi 1300-2700 m. Qo'riqxona hududini Obi-Safit, Xujaqo'rg'on, Zinjilbog', Novabog' va boshqa soylar chuqur kesib o'tib, bu yerda go'zal tabiatli har xil tog' daralarini hosil qilgan. Qo'riqxona hududi 3938 gektarni tashkil etib, jami o'simliklarning 800 ga yaqin turi uchraydi. Shundan paparotniklar 5 ta, ochiq urug'lilar 5 ta, yopiq urug'lilar 790 ta turni tashkil qilmoqda. O'simliklarning 13 turi "Qizil Kitob"ga kiritilganligi alohida ahamiyatga egadir. Shu bilan birga hududda 200 ta tur dorivor, 25 ta tur oziq-ovqat o'simligi sanaladi.

Kalit so'zlar: Qo'riqxona, o'simlik, dorivor, daraxt, buta, oziq-ovqat, "Qizil kitob", paparotnik, paleontologiya, rellef.

**THE BOOK ANALYSIS OF PLANTS IN THE TERRITORY OF THE STATE
GEOLOGICAL RESERVE**

Abstract. This article presents an analysis of the flora found in the Book state geological reserve. The territory of the Reserve is geographically located on the south-western slope of Zarafshan mountain, and administratively in the book District of Kashkadarya region. The total area is 3,938 ha. The relief is mountainous, the upper part consists of cliffs, and the lower side of hills. The elevation above sea level is 1300-2700 m. The territory of the Reserve was deeply crossed by Obi-Safit, Khujaqurgan, Zinjilbog, Novabog and other streams, which formed various mountain gorges of beautiful nature here. The reserve area is 3,938 hectares, with about 800 species of plants occurring in total. Of this, paparotniks are constituting 5 species, Open-seeded 5 species, closed-seeded 790 species. Of particular importance is the inclusion of 13 species of plants in the "Red Book". At the same time in the territory, 200 species are considered medicinal, 25 species are considered food plants.

Keywords: nature reserve, plant, medicine, tree, shrub, food, Red Book, fern, paleontology, relief.

КНИГА «АНАЛИЗ РАСТЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ГЕОЛОГИЧЕСКОГО ЗАПОВЕДНИКА»

Аннотация. В этой статье представлен анализ растений, встречающихся на территории Государственного геологического заповедника книга. Территория заповедника географически расположена на юго-западном склоне горы Зарафшан, а административно в книжном районе Каишдаринской области. Общая площадь 3938 га. Рельеф гористый, верхняя часть состоит из скал, а нижняя - из холмов. Высота над уровнем моря 1300-2700 м. Территорию заповедника глубоко пересекают ручьи Оби-Сафит, Ходжакурган, Зингильгаг, Новабаг и другие, образующие здесь различные горные ущелья с живописной природой. Территория заповедника составляет 3938 га, всего здесь встречается около 800 видов растений. Из них папоротников насчитывается 5 видов, открытых-5, закрытых-790 видов. Особое значение имеет то, что в "Красную книгу" занесено 13 видов растений. При этом на территории насчитывается 200 видов лекарственных и 25 видов пищевых растений.

Ключевые слова: заповедник, растение, лекарство, дерево, кустарник, еда, Красная книга, папоротник, палеонтология, рельеф.

Kirish. Kitob Davlat geologik qo‘riqxonasi 1979-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan zaminimizning geologik tarixi tabiiy-ilmiy yodgorliklarini nomoyon etadigan paleontologiya – stratigrafiya majmualarini qo‘riqlash va rejali o’rganish, shuningdek tabiatni muxofaza qilish, aholining ekologik bilimini oshirish maqsadida tashkil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar Davlat qo‘mitasi qaramog‘ida turadi. Qo‘riqxonaning hududi geografik jihatdan Zarafshon tog‘ining janubiy-g‘arbiy yonbag‘ida, ma’muriy jihatdan esa Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida joylashgan. Umumiyligi maydoni 3938 ga. Relefi tog‘li, yuqori qismi qoyalardan, pastki tomoni esa, tepaliklardan iborat. Dengiz sathidan balandligi 1300-2700 m. Qo‘riqxonaning hududini Obi-Safit, Xujaqo’rg‘on, Zinjilbog‘, Novabog‘ va boshqa soylar chuqur kesib o‘tib, bu yerda go‘zal tabiatli har xil tog‘ daralarini hosil qilgan.

Qo‘riqxonaning tirik tabiat olami juda boy va xilma-xil. Ularni saqlash va o’rganish biologlarning asosiy vazifasidir. Bu yerda o’simliklarning 800 turga yaqini ma’lum bo‘lib, ularning 19 tasi O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan. Shuningdek hayvonot olami 168 tur umurtqali hayvonlardan iborat bo‘lib, ulardan 13 turi O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan.

Qo‘riqxonaning tabiiy iqlim sharoiti tez o‘zgaruvchan iqlim sharoitiga ega, shimaldan ochiqligi, janub va g‘arbdan yirik tog‘ sistemalari bilan yopib qo‘yilganligiga, shuningdek suv

ayirg‘ich tog‘lar (5 ta) ning, soylarning janubdan shimolga yo‘nalishda, ya’ni Hisor tog‘ tizmasiga nisbatan ko‘ngdalang joylashganligiga ham bog‘liq.

Joylashgan tog‘lar tizimi uchun quruq subtropik iqlimiga xos belgilar ko‘p va ayni bir vaqtida iqlim kantinentaldir. Qo‘riqxonadagi qisqa va iliq bahor issiq va bir-xil quruq yoz bilan almashadi va shu axvolda kech kuzgacha davom etadi. Qishda haroratning tez-tez keskin o‘zgarishi sababli ob-havo muhim bo‘lmaydi. Bahorning eng kechki paytlarida ham sovuq bo‘lishi mumkin (20 aprelgacha) yoki erta kuzda ham ayrim yillari sovuq tushushi mumkin (10-15 oktyabrda).


Qor qoplami doimiy bo‘ladi, qo‘riqxonaning janubiy qismi Qoratog‘da 1 m gacha va undan ham ortiq bo‘lib, ayrim yillari noyabrdan to may oyigacha yotadi, qolgan maydonlarda qor qalinligi 1 m gacha bo‘lib, dekabrdan aprel oyigacha yotadi. Qor qalinligini uzoq turishi bilan qo‘riqxona qishi o‘rtacha mintaqalar qishiga o‘xshab ketadi. Qorning ketishi qo‘riqxonaning asosiy qismida mart oyining oxirgi o‘n kunligiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qo‘riqxonaning janubiy (Qoratog‘) qismida qorning ketishi aprel oyining ikkinchi o‘n kunligiga to‘g‘ri keldi.

Qor qoplaming birinchi paydo bo‘lishi 2023-yilda 25-noyabr kuniga to‘g‘ri keldi. Qor qalinligi 20 smgacha etdi. Qor qo‘riqxonaning barcha hududida bir-xil qalinlikda yog‘di.

Metodlar. O’simlik turkum va turlarini aniqlashda Определитель растений Средней Азии asaridan foydalanildi. Turlarning ilmiy nomlari POWO (Plants of the World Online, 2023) xalqaro elektron ma’lumotlar bazasi asosida keltirildi. Ma’lumotlarning statistik tahlillari Microsoft Excel 2014 dasturlari yordamida amalga oshirildi.

Natijalar. Qo‘riqxona o‘simliklar dunyosi juda boy va xilma-xil bo‘lib, ularni muhofaza qilish va o‘rganish asosiy vazifalardan biridir. Qo‘riqxona hududida 2024-yilga kelib jami 800 ta yuksak o‘simliklar o‘sishi aniqlangan bo‘lib, shundan 5 ta ochiq urug‘lilar, 5 ta paparotniklar va 790 ta (yuksak o‘simliklar) tashkil etadi va 80 ta oilaga kiradi(1-jadval).

Shu o‘simliklardan 60 ga yaqini daraxt va butalar bo‘lib qo‘riqxonada 857,2 ga o‘rmonni tashkil qiladi(1-diagramma).



1-diagramma. Kitob davlat qo'riqxonasida tarqalgan daraxt va butalar(gk hisobida)

Qo'riqxonada maydonida 200 dan ortiq dorivor o'simliklar turi aniqlangan. Bu dorivor o'simliklardan asosiyлari (zaxirasi jixatdan ham) dala choy,qizilpoycha, xapri, (avruk) tog' rayhoni,sariq andiz, alqor uti, rovoch, shirinmiya, tog' jambili, oddiy bo'y madoron, sachratqi, kuchala, dorivor gulxayri, oq chayir o'simliklari hisoblanadi(1-rasm).

Bu sanab o'tilgan dorivor o'simliklarni bir qismi: kuchala, oqchayir, rovoch, etmak, dug'boy, sariq andiz, ayiq uti, sachratqi, bo'y madoron, alqor kabi turlardan mahalliy aholi dorivor giyoh sifatida foydalanib keladi.

Shuningdek qo'riqxonada hududida 25 ga yaqin oziq-ovqatga ishlatalish mumkin bo'lgan o'simlik turlari mavjuddir. Bundan tashqari hududda 20 dan ortiq manzarali daraxt-butalar turlari uchraydi.

Kitob Davlat geologik qo'riqxonasi hududidagi o'simlik oilalari

2024-yil holati

Jadval-1

T/r	Oilalar nomi	Turlar soni
1.	Qizilchanomadoshlar	2
2.	Boshqodoshlar	48
3.	Loladoshlar	13
4.	Gulsafsardoshlar	7
5.	Nargisdoshlar	1

6.	Torondoshlar	23
7.	Chinniguldoshlar	35
8.	Ayiqtovondoshlar	29
9.	Ko'knordoshlar	3
10.	Karamdoshlar	35
11.	Ra'noguldoshlar	33
12.	Burchoqdoshlar	74
13.	Yoronguldoshlar	8
14.	Toshbaqatoldoshlar	2
15.	Sutlamadoshlar	10
16.	Kuchaladoshlar	3
17.	Xinadoshlar	2
18.	Gulxayridoshlar	6
19.	Qizilpoychadoshlar	3
20.	Kepreydoshlar	5
21.	Soyabonguldoshlar	44
22.	Navro'zguldoshlar	3
23.	Gazako'tdoshlar	4
24.	Gavzabondoshlar	20
25.	Tokdoshlar	1
26.	Labguldoshlar	44
27.	Sigirquyruqdoshlar	42
28.	Zubturumdoshlar	3
29.	Ro'yandoshlar	15
30.	Uchqatdoshlar	4
31.	Qung'iroqguldoshlar	4
32.	Ziradoshlar	139
33.	Chinordoshlar	1
34.	Zarangdoshlar	1
35.	Sarvdoshlar	1
36.	Qirqbo'g'imdoshlar	2
37.	Solabdoshlar	2
38.	Yalpizdoshlar	2
39.	Qo'ng'iroqguldoshlar	7
40.	Nashadoshlar	1
41.	Dalachoydoshlar	1
42.	Piyozdoshlar	15
43.	Sarsabildoshlar	4
44.	Shirachdoshlar	5
45.	Sarijondoshlar	2
46.	Zirkdoshlar	3
47.	Sallaguldoshlar	1

48.	Shotaradoshlar	3
49.	Shuradoshlar	4
50.	Kermakdoshlar	1
51.	Yong‘oqdoshlar	1
52.	Gunafshadoshlar	3
53.	Yulg‘undoshlar	1
54.	Toldoshlar	8
55.	Qizilyuguruqdoshlar	1
56.	Qovuldoshlar	1
57.	Sayoqguldoshlar	1
58.	Qayrag‘ochdoshlar	2
59.	Tutdoshlar	1
60.	Gazandadoshlar	3
61.	Olmadoshlar	2
62.	Semizakdoshlar	2
63.	Pistadoshlar	1
64.	Derbendoshlar	3
65.	Qontepardoshlar	1
66.	Chilonjiydadoshlar	4
67.	Jiydadoshlar	2
68.	Uzumdadoshlar	1
69.	Asorundoshlar	4
70.	To‘ng‘iztaroqdoshlar	4
71.	Poyabargdoshlar	1
72.	Kendirdoshlar	1
73.	Kipreydoshlar	1
74.	Ituzumdadoshlar	4
75.	Pechakdoshlar	5
76.	Zarpechakdoshlar	6
77.	Olxo‘ridoshlar	2
78.	Qirqulloqdoshlar	1
79.	Normushkdoshlar	1
80.	Chetisporadondoshlar	1

1-jadvaldan ko’rinib turibdiki hududda yopiq urug’li o’simliklarning 80 ta oilasi uchrab shundan Ziradoshlar 149 tur, Burchoqdoshlar 74 tur, Boshqodoshlar 48 tur, Labguldoshlar va Soyabonguldoshlar 44 tadan turni tashkil qilmoqda.



1-rasm Kitob davlat geologik qo'riqxonasi o'simliklari

Xulosa. Kitob Davlat geologik qo'riqxonasi hududida o'simliklarni jami 800 ga yaqin turi mavjudligi aniqlandi. Shundan paparotniklar 5 ta, ochiq urug'lilar 5 ta, yopiq urug'lilar 790 ta turni tashkil qilmoqda. O'simliklarning 13 turi "Qizil Kitob"ga kiritilganligi bu hududdagi noyob va muhofazaga muhtoj turlarni alohida o'rganishni talab qiladi. Shu bilan birga hududda 200 ta tur dorivor, 25 ta tur oziq-ovqat o'simligi borligi bu o'simliklardan rejali va oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishni taqazo etmoqda.

REFERENCES

1. Bobonazarovich Y. B. TABIIY MUHOFAZA ETILADIGAN HUDUDLARDA EKOTURIZIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (KITOB GEOLOGIK QO'RIQXONASI MISOLIDA) //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 11. – C. 315-324.
2. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o'simligining dorivorlik xususiyatlari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 8-10.
3. O'zbekiston florasi 3-tom.1961-yil. 717-720-bet.
4. Xurramov O. G. Islamov BS SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L //NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. – T. 257.

5. Xurramov O. G., Islamov B. S. SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L. NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 2. – №. 1
6. Введенский А.И., Ковалевская С.С. Род Eremurus M. Bieb. // Определитель растений Средний Азии. – Ташкент: Фан, 1971. Т. II. – С.14-27.